



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 6-yanvar

5-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 37-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash hamda transport sohasidagi ustuvor vazifalarni bajarish, aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasi tasdiqlanganligi;

hududlarning jamoat transporti bilan ta‘minlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini belgilash;

hududlarning jamoat transporti bilan ta‘minlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini baholash orqali ularning jamoat transporti bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlash;

avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash;

avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifati bo‘yicha hududlarning reytinglarini belgilash mezonini yo‘lga qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar va tuman hokimliklari 2025-yil 10-dekabrga qadar reyting natijalarini hisobga olgan holda, aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatish reytingini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqsin hamda viloyat hokimligiga kiritsin.

4. Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan zarur bo'lgan mablag'lar Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati
hokimi



Z.Mirzayev